

Nurullayeva U.N.,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti
nurullayevaumida649@gmail.com



GLOBALIZATSIYA VA MILLIY QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASI JARAYONINING ILMIY TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada iste'molchilik jamiyati xususiyatlari va globalizatsiya jarayonining ta'sirida an'anaviy hisoblangan milliylik va vatanparvarlik qadriyatlarining o'zgarishga yuz tutishi jarayonining aloqadorligi o'rganilgan. Shu bilan birgalikda, oila qadriyatlarining transformatsiyasi natijasida ayrim jamiyatlarda oila institutining inqirozi atroflicha tahlil qilingan. Olingan xulosalar natijasida globallashuv jarayonining salbiy oqibatlarini bartaraf etish maqsadida o'zgarishlarning milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda o'zlashtirish lozimligi e'tirof etildi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются характеристики общества потребления и взаимосвязь между процессом изменения таких традиционных ценностей как национальность и патриотизм, под влиянием процесса глобализации. В то же время был тщательно проанализирован результат трансформации семейных ценностей в некоторых обществах. В результате исследования были сделаны выводы об особой важности освоение новшеств и изменений с учетом национальных особенностей.

Annotation. This article examines the characteristics of the consumer society and the relationship between the process of changing such traditional values as nationality and patriotism, under the influence of the globalization process. At the same time, the result of the transformation of family values in some societies was carefully analyzed. As a result of the study, conclusions were drawn about the particular importance of mastering innovations and changes taking into account national characteristics.

Tayanch so'zlar: globalizatsiya, lokalizatsiya, glokalizatsiya, umumiy qadriyatlar, milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, iste'molchilik jamiyati, yoshlar tarbiyasi.

Ключевые слова: глобализация, локализация, глокализация, общие ценности, национальная идентичность, патриотизм, общество потребления, образование молодежи.

Keywords: globalization, localization, glocalization, common values, national identity, patriotism, consumer society, youth education.

Global darajada ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, texnologiyalarning rivojlanishi, ta'lim tizimidagi innovatsiyalar, zamonaviy insonga yangicha qadriyatlarni taqdim qilmoqda. O'zgarishlar ko'lami millat va vatanparvarlik kabi qadriyatli tushunchalarning mohiyati hamda anglanish darajasida ham o'z ifodasini topmoqda.

Kirish. Jamiyatning ma'naviy va madaniy tuzilishidan kelib chiqqan holda tabiiy tarzda shakllangan qarashlar, urf-odatlar, turmush tarzi, e'tiqodlar qadriyatlar sifatida ixcham va qulay ijtimoiy tajriba tashuvchisi hisoblanadi. Ularda etnos, millat, butun jamiyatning tarixan qayd etilgan va sinovdan o'tgan hayotiy imkoniyatlari, me'yorlari, xulq-atvori, dunyoqarashi namunalari o'z ifodasini topadi. Qadriyatlar ichki tartibga solishning ijtimoiy tajriba davomida ishlab chiqilgan ko'rsatmalari va ustuvor yo'nalishlari sifatida jamiyatning barqarorligi va birligini, uzluksizligini, zamonlar bog'liqligini va kelajakka o'tish imkoniyatini ta'minlaydi¹.

Bugungi kunda dunyodagi aksariyat mamlakatlar sanoatlashtirish va postindustrial rivojlanish davrlarini boshdan kechirayotgan paytda jamiyatning qadriyatlar tizimi turli transformatsiyalarga uchramoqda. Global darajada ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, texnologiyalarning rivojlanishi, ta'lim tizimidagi innovatsiyalar, zamonaviy insonga yangicha qadriyatlarni taqdim qilmoqda. O'zgarishlar ko'lami millat va vatanparvarlik kabi qadriyatli tushunchalarning mohiyati hamda anglanish darajasida ham o'z ifodasini topmoqda. Mazkur jarayonning empirik jihatdan asoslanishi ko'plab olimlar tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa-da, jarayonning ko'pqirraliligi uni hanuzgacha o'rganilishi, o'lchanishi mushkul bo'lgan me'yorlar sifatida talqin qilinishiga olib kelmoqda.

Maqsad va uni asoslash. Bugungi ijtimoiy-siyosiy tendensiyalar va tubdan o'zgarayotgan tushunchalar, globallashuv hamda kosmopolitizm g'oyalari davrida millat tushunchasining siyosiy, ijtimoiy va madaniy ahamiyati pasayishi millatning o'z madaniyatini, xalq an'analarini saqlab qolishga bo'lgan intilishi, eng avvalo, vatanparvarlik xususiyatida aks etmoqda. Vatanparvarlik qadriyatining asl mohiyati milliy davlatning birinchi o'rinda turishi, o'z madaniyatini saqlash va uning iqtisodiy, harbiy-siyosiy, madaniy ta'sirini millat tomonidan yoyilishida aks etadi. XVII–XX asrning birinchi yarmigacha bo'lgan sanoat davridagi milliy davlatlarning gullab-yashnashi va mavjudligi davrida vatanparvarlik an'anaviy qadriyat sifatida hukmronlik qildi. Ijtimoiy-siyosiy tushuncha sifatida vatanparvarlikning ahamiyati postindustrial jamiyat hamda globallashuv jarayoni sharoitida sezilarli darajada pasaymoqda. Zamonaviy jamiyatning vatanparvarlik ta'limotlari ko'proq insonparvarlik va umuminsoniy qadriyatlar tomoniga keskin siljiganini payqash mumkin.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Qadriyatlar har qanday jamiyatning o'zagi bo'lib, ijtimoiy ongning barcha shakllarini o'zida jamlaydi va o'zlashtiradi². Inson uchun qadriyat unga ijobiy his-tuyg'ularni beradigan barcha obyektlardir. Bolalikdan har bir shaxsda tarixning yangi davri bilan o'zgarib turadigan, madaniyatda ustun bo'lgan qadrlar g'oyalari asosida shakllanadigan shaxsiy qadriyatlari tizimi bo'ladi.

¹ Ситаров В.А. Ценностные трансформации современной студенческой молодежи // Знание. Понимание. Умение. – 2017, №2. С. 204. <https://cyberleninka.ru/article/v/tsennostnye-transformatsii-sovremennoy-studencheskoy-molodezhi>

² Моджина Н. В. Роль права как ценностного феномена в формировании личности: Монография /Моджина Н. В. — Уфа: РИЦ БашГУ, 2009. — с. 50.

Zamonaviy tadqiqotlarda bir vaqtning o'zida sodir bo'ladigan, o'zaro bog'liq, mahalliy madaniyatlarga ta'sir ko'rsatadigan globallashuv jarayonining to'rtta madaniy ta'sir yo'llari ajratib ko'rsatiladi. Bular: **yetakchi xalqaro doiralardagi munosabatlar madaniyati; jahon intellektual madaniyati; ommaviy madaniyat; ijtimoiy harakatlar (ko'pincha yangi diniy harakatlar va ta'limotlar ko'rinishida namoyon bo'ladi).**

Postindustrial jamiyat shakllarini siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy jihatdan ikki darajada farqlash mumkin. Bu turdagi jamiyatning siyosiy va iqtisodiy modellari davlatlararo hamkorlikning yuqori darajasi, xalqaro va mintaqaviy institutlarning yuqori darajada rivojlanganligi, tashqi siyosatda iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlikning ustunligi bilan tavsiflanadi³.

Iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy munosabatlardagi ommaviy madaniyat marketing hamda bozor munosabatlari bilan bevosita bog'liq. Marketingning mohiyati tovarni iste'molchilar o'rtasida targ'ib qilishdan iborat bo'lsa, ommaviy madaniyat (jumladan, glamur madaniyat) ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida shaxs va uning ijtimoiy ko'z o'ngida hashamatli turmush tarzi yo'lga qo'yishni oqlaydi hamda tovarlarni iste'mol qilish uchun ma'naviy-psixologik asos yaratadi⁴.

XX asrning 60-yillari oxiri jamiyatning tub ijtimoiy-qadriyatli o'zgarishlari, ya'ni iste'molchilik, jinsiy inqilob va kosmopolitizmning shakllanishi kabi yangi ijtimoiy hodisalarning paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi. Ushbu yangi ijtimoiy tendensiyalar qadriyatlar majmuyini belgilashda noan'anaviy yondashuvni shakllantirdi va ijtimoiy institutlarning shakli hamda holatiga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy o'zaro ta'sirlarning yangi shakllari uchun asos yaratdi. Iste'molchilik va jinsiy inqilob postindustrial jamiyatning belgilovchi ijtimoiy-madaniy yo'nalishlaridan biriga aylandi⁵.

Falsafiy nuqtayi nazardan mumtoz qadriyatlar va inson faoliyati millat, davlat hamda e'tiqod (asosan, XIX asr va XX asrning birinchi yarmi) singari mavhum g'oyalarga asoslangan. Bugungi kunda moddiy farovonlikka erishish g'oyalari G'arbning postindustrial jamiyat qadriyatlari tizimida shaxsning ijtimoiy munosabatlari va qadriyat tizimining asosiy axloqiy hamda psixologik motivatoriga aylanmoqda⁶. Uning negizida iste'molchilik jamiyati va kayfiyatining sifatlari namoyon bo'lmoqda. Ularning qadriyatlar tizimiga ta'sirini tushunish uchun iste'molchilik jamiyati va uning xususiyatlariga to'xtalib o'tish muhim deb o'ylaymiz.

XX asrning 60-yillari oxiri jamiyatning tub ijtimoiy-qadriyatli o'zgarishlari, ya'ni iste'molchilik, jinsiy inqilob va kosmopolitizmning shakllanishi kabi yangi ijtimoiy hodisalarning paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi. Ushbu yangi ijtimoiy tendensiyalar qadriyatlar majmuyini belgilashda noan'anaviy yondashuvni shakllantirdi va ijtimoiy institutlarning shakli hamda holatiga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy o'zaro ta'sirlarning yangi shakllari uchun asos yaratdi. Iste'molchilik va jinsiy inqilob postindustrial jamiyatning belgilovchi ijtimoiy-madaniy yo'nalishlaridan biriga aylandi.

³ Tellis A. J., Marble A., Tanner T. Strategic Asia 2010-11. Asia's Rising Power and America's Continued Purpose. – Published in the United States of America by The National Bureau of Asian Research, Seattle, WA, and Washington, D.C. 2010. P. 27.

⁴ Волков В. Влияние СМИ на формирование культурных ценностей: аксиологический аспект // Молодой ученый. – 2015. – №3. – С. 913-915.

⁵ Giddens A., Sutton P.W. Essential concepts in sociology. – Cambridge: Polity Press, 2014. pp. 13-14. 130

⁶ Сычева Е. Традиционные ценности в современной массовой культуре Японии // XIX Шишкинские чтения // <http://www.vestnik.mgimo.ru/sites/default/files/pdf/sycheva.pdf>

***Mashhur nemis-
amerikalik faylasuf
Erik Fromm
konsyumerizmni
sanoat jamiyatida
iste'molchilikning
paydo bo'lishi
va mavjudligini
ta'kidlagan holda
uni ijtimoiy
qadriyatlar tizimida
– "industrializm
e'tiqodi" deb
nomlagan.***

Konsyumerizm (iste'molchilik) ijtimoiy qadriyat shakli sifatida sanoat davrining kapitalistik ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimi taraqqiyotining mahsuli sanaladi. Bu tushunchaning sinonimi iste'mol jamiyatidir. *Iste'mol jamiyati* kapitalizmning ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy mahsuli bo'lib, iqtisodiy munosabatlarda daromadlarning o'sishi, bo'sh vaqtning ko'payishi, jamiyatning klassik sinfiy tuzilmasining yemirilishi va iste'molning individuallashuvi bilan birga shakllandi⁷. Mashhur nemis-amerikalik faylasuf **Erik Fromm** konsyumerizmni sanoat jamiyatida iste'molchilikning paydo bo'lishi va mavjudligini ta'kidlagan holda uni ijtimoiy qadriyatlar tizimida – "industrializm e'tiqodi" deb nomlagan. Muallifning asosiy g'oyasi jamiyat va insonning hissiy hamda ma'naviy intilishlarining jamiyat hamda individ tomonidan kamsitilishi, hissiyotlar, ma'naviyat kabi inson borlig'ining asosiy kategoriyalarini moddiy iste'mol bilan almashtirishda namoyon bo'ladi⁸.

Texnologik rivojlanish natijasida o'rtacha odamning hayoti qulay ko'rinish hosil qildi. Urushlar, ijtimoiy qo'zg'alishlar, ocharchilik, ijtimoiy-siyosiy inqirozlarning yo'qligi, ijtimoiy barqarorlik, moddiy boyliklar, barqaror ichki siyosiy tartib oddiy inson hayoti uchun ijtimoiy qulaylikni ta'minladi. Texnologiya odamlarning turmush tarzi va xulq-atvorini tubdan o'zgartirdi, bu esa gedonizmning kuchayishida namoyon bo'ladi. Gedonizm ijtimoiy jihatdan ustun bo'lgan tendensiyalardan biriga aylandi. Lekin bu ma'noda gedonizm deganda, nafaqat iste'mol, balki kishilarning ijtimoiy ongidagi o'zgarishlar tushuniladi.

XIX asrda birinchi iste'molchi qatlami⁹ aristokratiya va yuqori ijtimoiy tabaqa edi. XX asrning o'rtalariga kelib, iste'molchilik turmush tarzi sifatida iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda jamiyat uchun juda xarakterli va keng tarqalgan uslubga aylandi. Kreditga ega bo'lish va qarz hisobiga yashash oddiy fuqaro uchun odatiy holga aylandi. XX asrning oxiriga kelib, ijtimoiy mavqeni aniqlash iste'mol darajasi bilan belgilana boshladi¹⁰. Iste'molchilikning asosiy ijtimoiy va ijtimoiy-madaniy xususiyati shundan iboratki, iste'mol nafaqat moddiy ne'matlar iste'moliga aylanib, sof iqtisodiy funksiyalarni bajargan, balki ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik qonuniyatlarda qaror topib, postindustrial jamiyatning ijtimoiy institutiga aylandi. Ko'pgina mutaxassislar ta'kidlaganidek, iste'molchilikning rivojlanishi va shakllanishining psixologik xususiyatlaridan biri shundaki, iste'molchilar hayot uchun zarur bo'lgan

⁷ Giddens A., Sutton P.W. Essential concepts in sociology. – Cambridge: Polity Press, 2014. – P. 74.

⁸ Фромм Э. Иметь или быть? [пер. с нем. Э.Телятниковой]. – Москва: Издательство АСТ, 2017. – С. 226-227

⁹ Санкт-Петербургский государственный университет Факультет социологии. Социологический институт Российской академии наук Социологическое общество им М.М. Ковалевского. Журнал социологии и социальной антропологии 2011. Том ХИВ№ 5 (58) С. А. Ильиных. Ключевые понятия общества потребления: исследование с позиции социологии// <https://www.hse.ru/data/2012/03/01/1268799201/%.pdf>

¹⁰ Giddens A., Sutton P.W. Essential concepts in sociology. – Cambridge: Polity Press, 2014. – P. 75-76. 134

tovarlarga emas, balki tovarni o'zlari sotib olish jarayonidan zavqlanishga ko'proq qiziqish bildiradilar. Iste'molchilik tanqidchilari bu hodisaning sun'iyligini ta'kidlaydilar. Kompaniyalar iste'molchilar o'rtasida brendni ilgari surish uchun ko'p milliard dollarlik investitsiyalarni yo'naltirish bilan tegishli ijtimoiy va qadriyat yo'nalishlarini yaratish orqali tovarlarga sun'iy talabni yaratmoqda.

Yangi iqtisodiy va ijtimoiy voqeliklarda iste'mol tovarlari shaxsning faqat xo'jalik subyekti sifatidagi faoliyati bilan cheklanib qolmadi, u jamiyat a'zolari ongi va xatti-harakatlarining nomoddiy, ma'naviy tomonlarini belgilay boshladi. Boshqacha qilib aytganda, iste'mol jamiyatning ijtimoiy jihatdan ustun bo'lgan qadriyatlarini belgilay boshladi. Bu turdagi jamiyatning ijtimoiy-psixologik o'zgarishi tovarlar va moddiy ne'matlarning ulkan iste'moli bilan tavsiflanadi, bu esa o'z navbatida shaxsning ijtimoiy dunyoqarashini shakllantiradi.

Postindustrial jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy andozalari **Ronald Inglehart**ning yashab qolish va o'zini namoyon qilish, an'anaviylik va dunyoviy-ratsional hokimiyat shaklidagi qadriyatlar qarama-qarshiligi tizimida o'z ifodasini topgan¹¹. Ijtimoiy nuqtayi nazardan R.Inglehart moddiy va postmoddiy (moddiydan ustun bo'lgan) qadriyatlarning tushunchasi muqobilligida ifodalanadi. Moddiylik ustunlik qilgan hamjamiyatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyati omon qolish, jismoniy saqlanish, xavfsizlik va moddiy farovonlikdan iborat. Postmoddiy qadriyatlarning o'ziga xos xususiyatlari esa ijodkorlik, o'zini namoyon qilish, ijtimoiy birdamlik, bag'rikenglikdir. R.Inglehart zamonaviy dunyoda qadriyatlarning postindustrializm ruhida o'zgarishini tadqiq etadi. Uning qadriyat yo'nalishlarining moddiylikdan ustun bo'lgan yo'nalishidagi harakati haqidagi g'oyasi sanoatlashgan demokratik mamlakatlarda aholining keng qatlamlari duch kelgan o'zgarishlarni o'rganishning asosiy yondashuvlarini belgilab berdi. Uning qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar haqidagi talqini ikkita asosga ega. *Birinchi*dan, olim jamiyatdagi ustuvorliklar biror narsaning "yetishmasligi" hisobiga shakllanadi, ya'ni kishilar jamiyatda nisbatan kam bo'lgan narsalarni juda qadrlashadi, deb hisoblaydi. *Ikkinchi*dan, u insonning shaxsiy qadriyat yo'nalishlari hamda ustuvorliklari uning ijtimoiylashuvi jarayonida sodir bo'lgan sharoitlarni aks ettirishiga urg'u beradi. Ushbu ikki farazning uyg'unlashuvi qadriyat yo'nalishlari shakllanishining umumiy modelini yaratadi. Unga ko'ra, insonning asosiy qadriyat yo'nalishari davrning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga (shaxsiy va ijtimoiy) javoban erta yoshda shakllanadi. Shakllangandan keyin esa bu qadriyatlar odatda hayotiy sharoitlarning keyingi barcha o'zgarishlari oldida o'zgarmas bo'lib qoladi. R.Inglehart ushbu modeldan G'arb industrial jamiyatlarini o'zgartiradigan ijtimoiy-iqtisodiy omillar mazmunga ega bo'lgan maqsadlarning nisbiy tabiatini hamda shunga muvofiq aholining qadriyat ustuvorliklarini ham o'zgartirishini ta'kidlagan.

G'arb mamlakatlarida jamiyat an'anaviy maqsadlarga erishgandek ko'rinadigan muhitda o'sib-ulg'aygan yosh avlod o'z e'tiborini "post-moddiy"

Postindustrial jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy andozalari Ronald Inglehartning yashab qolish va o'zini namoyon qilish, an'anaviylik va dunyoviy-ratsional hokimiyat shaklidagi qadriyatlar qarama-qarshiligi tizimida o'z ifodasini topgan.

¹¹ Най С. Будущее власти пер. с англ. В.Н. Верченко. – Москва: АСТ, 2014. – С. 68

*Xalqaro tizim
doirasidagi yangi
postindustrial
jamiyatning
ijtimoiy
qonuniyatlari
faqat bitta milliy
davlat doirasida
chegaranib
qolmay, balki
mahalliy va global
miqyosda ham
tarqalgani bilan
tavsiflanadi.
Xalqaro
munosabatlardagi
yangi siyosiy
tendensiyalar
transmilliy
tendensiyaning
rivojlanishi va
globallashuv
jarayoni edi.*

maqsadlar – oʻzini namoyon etish, shaxsiy erkinlik, ijtimoiy tenglik, oʻzini oʻzi amalga oshirish va hayot sifatini saqlab qolish singari qadriyatlarga qaratmoqda. R.Inglehartning fikriga koʻra, “Insonning qadriyatlari va xulq-atvori koʻp jihatdan uning yashashi va hayoti kafolatlanganligi bilan belgilanadi”¹².

Iqtisodiy xavfsizlikdan tashqari postindustrial jamiyat sifatli taʼlim olish va axborotdan keng foydalanish imkoniyatini beradi. Bu esa emansipativ qadriyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Natijada postmoddiy qadriyatlar shaxslar uchun ustuvor ahamiyatga ega boʻlib, moddiy ehtiyojlarni qondirish odatiy hol sifatida qabul qilina boshlanadi. Emansipativ qadriyatlarning tarqalishi, oʻz navbatida, yangi demokratik institutlarni yaratish uchun madaniy asos yaratadi va jamiyatda bagʻrikenglik tuygʻularining kuchayishiga xizmat qiladi.

Xalqaro tizim doirasidagi yangi postindustrial jamiyatning ijtimoiy qonuniyatlari faqat bitta milliy davlat doirasida chegaranib qolmay, balki mahalliy va global miqyosda ham tarqalgani bilan tavsiflanadi. Xalqaro munosabatlardagi yangi siyosiy tendensiyalar transmilliy tendensiyaning rivojlanishi va globallashuv jarayoni edi. Transmilliylikning shakllanishi 70-yillarning oxirida sodir boʻldi. Transmilliylik konsepsiyasi **Robert Keohane** va **Jozef Nay** tomonidan taklif qilingan¹³. Transmilliylik konsepsiyasining mohiyati turli mamlakatlar fuqarolarining hukumatlarni chetlab oʻtgan holda oʻzaro munosabatlarga kirishishidir. Ilgari turli mamlakatlar fuqarolarining ijtimoiy oʻzaro taʼsir va munosabatlari urush davrida sodir boʻlgan. Chunki urush sanoat davri va markazlashgan davr davlati xalqaro siyosatining klassik quroli hisoblanadi. Transmilliy tizimda esa, aksincha, ijtimoiy jarayonlarning muhimligi va ahamiyati oshadi.

Postindustrial jamiyatda sotsializatsiya agentlarining rolini ham taʼkidlash muhim. Texnologiyalar va aloqa vositalarining rivojlanishi tufayli texnotronik jamiyat nazariyasiga koʻra, **ommaviy axborot vositalari** sotsializatsiya agenti rolini oʻz zimmasiga ola boshladi. Qadriyatlar tizimi iyerarxiyasini yaratish va shakllantirish nuqtayi nazaridan postindustrial jamiyatda ommaviy axborot vositalarining roli oshdi.

Amalda isteʼmol madaniyati va ijtimoiy qadriyatlar yirik kompaniyalarning marketing strategiyalari, joy-mahsulot singari aksiyalar, isteʼmolchilar ongiga kino va reklama bilan taʼsir qilish orqali bozorda tovarlarning harakatlarini shakllantiradi. Isteʼmolchilik doirasida tovar va xizmatlarni tanlash erkin saralash orqali amalga oshirilmaydi, balki kompaniyaning marketing strategiyasi orqali shakllantiriladi. Bunday holatda reklama vositachi rolini oʻynaydi va kompaniyaning iqtisodiy farovonligi hamda foydasini saqlab qolish uchun isteʼmolchilarda xarid afzalliklarini shakllantiradi. Bularning barchasi insonlarning yangicha qadriyatlar tizimi shakllanishiga sabab boʻladi.

¹² Инглхарт Р. Культурная эволюция: как изменяются человеческие мотивации и как это меняет мир. – Москва: Мысль, 2018. С. 19.

¹³ Nye J., Keohane R. Transnational Relations and World Politics: An Introduction // The University of Wisconsin Press. Journals Division // https://edisciplinas.usp.br/pluginfile.php/364783/mod_resource/content/1/keohane-nye_1971.pdf

Shu o'rinda globallashuv va milliy an'analarning o'zaro uchrashuvi jarayonini alohida tahlil qilish o'rinli bo'ladi. Globallashuv va mahalliy lashtirish tendensiyalari parallel ravishda rivojlanishi fanda **glokalizatsiya** jarayoni sifatida yuritiladi. Ushbu atamani taklif qilgan ingliz sotsiologi **Roland Robertson** global va mahalliy (lokal) tendensiyalar pirovardda bir-birini to'ldirishi, bir-biriga qo'shilishi, ammo muayyan vaziyatlarda ularning to'qnashuvi ehtimoli borligini inobatga olish lozim, degan o'rinli fikrni ilgari surgan¹⁴. Bu holat ijtimoiy va madaniy hayotda ro'y berayotgan o'zgarishlarning mohiyatini anglashda muhim ahamiyatga ega hamda mamlakatning demokratik rivojlanish istiqbollarini tushunish imkonini beradi. Jumladan, malakatimizda aholini qo'llab-quvvatlash maqsadida olib borilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash hamda fuqarolarning maqsadlari, qadriyatlari va mo'ljallarini o'rganish nafaqat hozirgi davrda ustun bo'lgan qadriyatlarni aniqlash, balki ijtimoiy o'zgarishlarni bashorat qilishda ham muhim ahamiyatga ega. Bunda ularning qadriyatlar tizimini o'rganish davomida jamiyatning xususiyatlariga e'tibor qaratish, o'ziga xos jihatlarni inobatga olish muhim hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan ijtimoiy va madaniy hayotda ro'y berayotgan o'zgarishlarning mohiyatini anglashda global hamda mahalliy tendensiyalar (glokalizatsiya jarayoni¹⁵) mamlakat hamda jamiyatning rivojlanish istiqbollarini tushunish imkonini beradi. Glokalizatsiya pirovard natijada qadriyatlarning bir-birini to'ldirishi, qo'shilishi, ammo muayyan vaziyatlarda to'qnashishi ehtimolini anglatadi¹⁶.

Aksariyat olimlar "umumiy qadriyatlar milliy o'zlikni anglashning asosini tashkil qiladimi?" degan savolga javob berishga urinishgan. **Denis Steyrs** Kanada qadriyatlari konsepsiyasini millatchilik g'oyalari bilan bog'lagan. Dalxauzi Makkalok Universiteti professori **Richard Lesters** Kanada qadriyatlarining mavjudligiga bo'lgan ishonch haqiqatan ham bor bo'lsa-da, ayrim holatlarda zararli bo'lishini aytib o'tgan. Uning fikricha, kanadaliklarning o'z hayotiy qadriyatlari borasida tasavvurlari tufayli ular o'zlarini boshqa millatlardan axloqiy va ma'naviy jihatdan ustun deb bilishlariga olib keladi. Chunki ular o'ta insoniy va ezgu sanalgan Kanada qadriyatlari asosida yashayotganliklariga astoydil ishonishadi. Kanadalik siyosatchilar mamlakat qadriyatlariga zid bo'lgan an'analarga sodiq bo'lgan immigrantlarga rad javobini berish amaliyoti tarafdori bo'lishgan. Bunda ular, asosan, ikki jihatga alohida e'tibor qaratishgan. Birinchidan, boshqa din, madaniyat, jins va jinsiy oriyentatsiyali insonlarga nisbatan tolerant bo'lmagan, ikkinchidan, Kanadadagi erkinlikni qabul qilishni istamagan insonlarga rad javobi berilgan. Bu kabi siyosatning yorqin namoyandasi 2017-yil Kanada konservativ partiyasi syezdi liderligiga nomzod Kelli Leytchdir.

***Dalxauzi Makkalok
Universiteti
professori Richard
Lesters Kanada
qadriyatlarining
mavjudligiga
bo'lgan ishonch
haqiqatan ham
bor bo'lsa-da,
ayrim holatlarda
zararli bo'lishini
aytib o'tgan.
Uning fikricha,
kanadaliklarning
o'z hayotiy
qadriyatlari
borasida
tasavvurlari
tufayli ular
o'zlarini boshqa
millatlardan
axloqiy va
ma'naviy jihatdan
ustun deb
bilishlariga olib
keladi.***

¹⁴ Соколов А. Вьетнамская культура в условиях глобализации. <https://www.ayk.gov.tr/wp-content/uploads/2015/01/Sokolov-Anatoliy>

¹⁵ Ingliz sotsiologi Roland Robertson tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, globallashuv va mahalliy lashtirish tendensiyalari parallel ravishda rivojlanishini nazarda tutadi.

¹⁶ Соколов А. Вьетнамская культура в условиях глобализации. <https://www.ayk.gov.tr/wp-content/uploads/2015/01/Sokolov-Anatoliy>

Mustaqil fikrlaydigan, ijodiy dunyoqarashga, kasbiy bilimga ega, yuksak madaniyat, jumladan, millatlararo muloqot madaniyati, mas'uliyat va aholi farovonligini yuksaltirishga qaratilgan mustaqil qarorlar qabul qila oladigan vatanparvar insonlarni tarbiyalash davlat siyosati darajasidagi asosiy vazifa bo'lib, mamlakat, odamlar va ularning oilalari farovonligini ta'minlashga xizmat qilishi lozim. Buni quyidagi chora-tadbirlar orqali amalga oshirish mumkin.

MDH olimlari orasida **D.M.Kenjaye**¹⁷ jadidlar qarashlarida va jamiyat ma'naviy islohotida islom qadriyatlarining o'rnini atroflicha o'rgangan, **A.J.Murtabayeva**¹⁸ qanoat va insof kategoriyalari asosida amaliy izlanish olib borgan, **L.M.Plexanova**¹⁹ insoniy (gumanistik) qadriyatlarning jamiyat madaniy rivojlanishidagi o'zni va tilda o'z aksini topishi jihatlarini lingvistik jihatdan tadqiq qilgan. **A.A.Xuseynova**²⁰ A.Jomiy qarashlaridagi umuminsoniy qadriyatlar tahlilini amalga oshirgan. **J.K.Aksakalova**²¹ oilaviy munosabatlar va qadriyatlar devalvatsiyasi sharoitida oila institutining barqaror rivojlanishini hamda yoshlarda oilaviy qadriyatlarni shakllantirishning psixologik jihatlarini o'rgangan, treninglar uchun metodik dasturlar yaratgan. **A.A.Romanyuk**²² fuqarolik huquqi masalalarida tarixiy va madaniy qadriyatlarning o'rnini jamiyat rivoji nuqtayi nazaridan o'rgangan.

A.I.Antonovning so'zlariga ko'ra, rus jamiyatida sodir bo'lgan oilaning transformatsiyasi iste'mol jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi tufayli sodir bo'lgan oila ijtimoiy institutining global inqirozining o'ziga xos ifodasidir. Uning natijasida oilaviy ishlab chiqarish, ota-onalar va bolalarning birgalikdagi mehnati, ayol-onalarni ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb qilish, shaxsiy-individual qadriyatlarning oilaviy qadriyatlardan ustunligi holati yuzaga keldi.

Yakuniy qism. Yuqorida aytib o'tilganlar o'zbek madaniyati asoslarining ahamiyatini, bilim va tarixga hurmatni, mamlakatning ko'p millatli xalqining ma'naviy qadriyatlarini, fuqarolarining o'z mamlakati, uning kelajagi uchun mas'uliyatining noyob tajribasini saqlab qolish zarurligini kuchaytiradi.

Mustaqil fikrlaydigan, ijodiy dunyoqarashga, kasbiy bilimga ega, yuksak madaniyat, jumladan, millatlararo muloqot madaniyati, mas'uliyat va aholi farovonligini yuksaltirishga qaratilgan mustaqil qarorlar qabul qila oladigan vatanparvar insonlarni tarbiyalash davlat siyosati darajasidagi asosiy vazifa bo'lib, mamlakat, odamlar va ularning oilalari farovonligini ta'minlashga xizmat qilishi lozim. Buni quyidagi chora-tadbirlar orqali amalga oshirish mumkin.

– ish o'rinlarini va oylik maoshlarni ko'paytirish orqali aholi turmush darajasini ko'tarish va farovon hayotni ta'minlash;

¹⁷ Кенжаев Д.М. Исламские ценности в воззрение джаидов и их концепция духовного реформирования общества. Дисс. Кандидат исторических наук. – Тошкент, 2008. – 154 с.

¹⁸ Муртабаева А.Ж. Нравственные ценности народа и их значение в духовном возрождении Узбекистана. Дисс. кандидат философских наук. – Нукус, 2000. – 131 с.

¹⁹ Плеханова Л.М. Лингвостилистические особенности и семантико-функциональный характер лексем, выражающих гуманистические ценности. Дисс. кандидат филологических наук. – Ташкент, 1998. – 137 с.

²⁰ Хусейнова А.А. Общечеловеческие ценности в мировоззрении Абдурахмана Джами. дис. канд. филос. наук: Ташкент, 1994. – 154 с.

²¹ Аксакалова Ж.К. Психологический тренинг как фактор развития ценности семьи. Дисс. ... канд. Психол. наук. – Ташкент, 2008. – 204 с.

²² Романюк А.А. Исторические и культурные ценности как объекты гражданско-правовых отношений. Автореферат. канд. юр. наук. – Ташкент, 2015. – 20 с.

- OAV va ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlaridan foydalangan holda jamiyatda birdamlik kayfiyatini shakllantirish va millatga aloqadorlik hissining shakllanishini ta'minlash;
- tarixiy va zamonaviy namunalarni targ'ib qilgan holda milliy g'urur hissini oziqlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Giddens A., Sutton P.W. *Essential concepts in sociology*. – Cambridge: Polity Press, 2014. pp. 13-14. 130
2. Nye J., Keohane R. *Transnational Relations and World Politics: An Introduction* // The University of Wisconsin Press. Journals Division // https://edisciplinas.usp.br/pluginfile.php/364783/mod_resource/content/1/keohane-nye_1971.pdf
3. Tellis A.J., Marble A., Tanner T. *Strategic Asia. 2010-11. Asia's Rising Power and America's Continued Purpose*. – Published in the United States of America by The National Bureau of Asian Research, Seattle, WA, and Washington, D.C. 2010. – P. 27.
4. Аксакалова Ж.К. Психологический тренинг как фактор развития ценности семьи. Диссер. ... канд. психол. наук. – Ташкент, 2008. – 204 с.
5. Волков В. Влияние СМИ на формирование культурных ценностей: аксиологический аспект // Молодой ученый. – 2015. - №3. – С. 913-915.
6. Ильиных С.А. Ключевые понятия общества потребления: исследование с позиции социологии // <https://www.hse.ru/data/2012/03/01/1268799201/%.pdf>
7. Инглхарт Р. Культурная эволюция: как изменяются человеческие мотивации и как это меняет мир. – Москва: Мысль, 2018. – С. 19.
8. Кенжаев Д.М. Исламские ценности в воззрение джадидов и их концепция духовного реформирования общества. Дисс. ... канд. истор. наук. – Ташкент, 2008. – 154 с.
9. Моджина Н.В. Роль права как ценностного феномена в формировании личности: Монография / Моджина Н. В. – Уфа: РИЦ БашГУ, 2009. – С. 50.
10. Муртабаева А.Ж. "Нравственные ценности народа и их значение в духовном возрождении Узбекистана". Дисс. ... канд. филос. наук. – Нукус, 2000. – 131 с.
11. Най С. Будущее власти пер. с англ. – Москва: АСТ, 2014. – С. 68.
12. Плеханова Л.М. Лингвостилистические особенности и семантико-функциональный характер лексем, выражающих гуманистические ценности. Дисс. кандидат филологических наук. – Ташкент, 1998. – 137 с.
13. Романюк А.А. Исторические и культурные ценности как объекты гражданско-правовых отношений. Автореф. ... канд. юр. наук. – Ташкент, 2015. – 20с.
14. Ситаров В.А. Ценностные трансформации современной студенческой молодежи // Знание. Понимание. Умение. – 2017, №2. С. 204. // <https://cyberleninka.ru/article/v/tsennostnye-transformatsii-sovremennoy-studencheskoy-molodezhi>
15. Соколов А. Вьетнамская культура в условиях глобализации. <https://www.ayk.gov.tr/wp-content/uploads/2015/01/Sokolov-Anatoliy>
16. Сычева Е. Традиционные ценности в современной массовой культуре Японии // XIX Шишкинские чтения // <http://www.vestnik.mgimo.ru/sites/default/files/pdf/sycheva.pdf>
17. Фромм Э. Иметь или быть? [пер. с нем. Э. Телятниковой]. – Москва: Издательство АСТ, 2017. – С. 226-227
18. Хусейнова А.А. Общечеловеческие ценности в мировоззрении Абдурахмана Джами. дис. канд. филос. наук : Ташкент, 1994. – 154с.